

UMRI BARAKATLI ULAMO

Badriddinova Risolat Kamoliddin qizi

Toshkent Xalqaro Islom Akademiyasi

Islomshunoslik magistratura yo'nalishi 1-kurs talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'z davrining eng buyuk namoyondalaridan, ko'plab kitoblar muallifi, buyuk so'fiy, "Ummat hakimi" degan ulug' nomga sazovar bo'lgan zot Mavlono Muhammad Ashraf Ali Tahonaviyning hayot yo'li, uning ijodiy yo'llari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *"Ummatning ruhiy shifokori", xalifa, Hindiston, Tahona, Qur'on, Bayanul Qur'on", Nurulbashar Muhammad Nurulhaqq, Behishti zuyur, Imdadul fatava.*

Janubiy Osiyo mintaqasida "Ummatning ruhiy shifokori" nomi bilan dong taratgan va millatning yangilovchisi bo'lmish Mavlono Muhammad Ashraf Ali Tahonaviy XX asr Islom qayta uyg'onish davrining eng mashhur namoyondalaridan biri edi. Mavlono Tahonaviy "O'z davrining yetuk olimi, serhosil ilmiy ma'rifiy kitoblar muallifi va Hindiston davlatining buyuk so'fiylaridan".

Ulug' alloma, nafaqat Hindistonda balki butun dunyoda shuhrat qozongan, "Ummat hakimi" degan ulug' nomga sazovar bo'lgan bu zotning to'liq ismlari Ashraf Ali Tahonaviy ibn Munshiy Abdulhaq ibn Hofiz Fayz Ali ibn G'ulom Farid Shahid ibn Jalol ibn Rahmatulloh ibn Omonulloh ibn Atiyqulloh Xatib ibn Hofiz Habibulloh ibn Odam ibn Muhammad Jalol ibn Sodrjahondir. Tahonaviy Hindistonning shimolida joylashgan Tahona qishlog'ida tug'ilgan. Musulmonlar bu yerda Mog'ullar davridan yashab kelishadi.

U kishining nasablari ota tomonidan ikkinchi xalifa va buyuk sahobiy hazrat Umar roziyallohu anhuga borib taqaladi. Ona tomondan esa sahoba hazrat Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhuga borib taqaladi.

Ilm olishni o'z qishloqlaridan boshlaganlar, o'sha davrda ulug' ulamolar maskani bo'lgan. Qur'ondagi bosh ta'limni Axunjidan olgan. So'ng Qur'onni asli Dehlilik bo'lgan Hofiz Husayn Alidan mukammal yoslaganlar. Fors tili va boshlang'ich kitoblarni Merat shahri ulamolaridan tahsil olgan. O'rta bosqich kitoblarni va boshlang'ich arab tilini Fath Muhammad Tahonaviydan olgan. So'ng bu fanlarni tog'asi shayx Vojid Alidan dars olgan.

Tahonaviy o'z asridagi turli ilm sohalarini mukammal egallagan mashhur olim bo'lib, masalalarni aniqlashda va dalillarni chuqur o'rganishda ilm toliblari orasida shuhrati keng tarqalgan. Tahonaviyning yetuk ilmi va ma'rifatidan foydalanish uchun musulmon o'lkalarining turli chekkalaridan ilm talabidagilar jamoa-jamoa bo'lib yog'ilib kelar edi. Ular Tahonaviyning ilmidan hayratlanib, uni qattiq hurmat qilishardi.

Tahonaviyning asarlarini ber necha qismga bo'lsa bo'ladi:

A) Tafsir va Qur'on ilmlari fanidan:

-Qur'oni Karimni urdu tiliga tarjimasi;

- Qur'on tafsiriga oid "Bayanul Qur'on" 4ta katta jilddan iborat; Bu kitobda shayx Tahonaviy oyatlar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni bayon qilib, chiroyli uslubda qur'oniyl mushkilotlarni izohlab bergan. Shayx Taqiy Usmoniy bu kitob borasida shunday degan: "Tafsir borasida esa urdu tilida yozilgan to'rtta katta jilddan iborat "Bayanul Qur'on"ni ta'lif qilgan. Bu kitob o'z ichiga tafsir, nahv, balog'at, fiqh, kalom, tasavvuf ilmlardagi bahslarni olgan. Bu kitobning qadrini ko'p tafsir kitoblarni o'qiga kishi bilasi. Bu kitob tafsirning mag'zini jamlagan".

Shayx Tahonaviy tafsirining muqoddimasida ba'zi bir muhim nuqtalarni yoritgan. Qur'onni tafsir qilish asosiy qoida va usullarini va o'zi tanlagan yo'lni yoritib bergan.

1. Qur'oni Karimni barchaga tushunarli tilda tarjima qilgan.
2. Ba'zi o'rinlarda foidalarni, fan yutuqlarini, va yuzaga keladigan ba'zi mushkilotlarni yechib bergan.
3. Mufasssirlarning barcha fikr va mulohazalarni, keltirmasdan, balki rojihlar fikrlarni yozgan.
4. Mazhablar o'rtasidagi ixtilofli masalarda faqat Hanafiy mazhab fikrini ochib bergan. Agar boshqa mazhab fikrlarini bildirishni o'rinli deb bilsa, xoshiyaga yozgan.

- Jamalul Qur'on (tajvid qoidalari bayoni va qiroatlar to'g'risida);

- Qur'on tajvidi

- Qur'on odoblari

- Mutashaabihaatul Qur'an litarooviyhil Ramazon;

- Zuhurul Qur'an min suduri sibyan.

- Islaahut tarjimatid dihlaviyya lilqur'anil Karim;

- At-taqsir fit tafsir: ba'zi asrimiz tafsirlari tanqid qilingan, usulut tafsiriga oid asl qoidalari sharhlangan;

-Ahkamul Qur'on : besh jilddan iborat. Bu asarda Qur'oni Karimdan olinadigan fiqhiy va aqiydaviy masalalar jamlangan.

B) Hadis va hadis ilmlariga doir kitoblar:

- Ihyaus sunan yoki Jamiul asar (arab tilida);

- Hifzul arabaiyn;

- Sunani Termiziy sharhi;

- Itfaul fitan tarjimatul ihyais sunan;

-I'laus sunan;

- Favaidu Muvatto Imam Malik.

C) Aqoidga doir:

- Al-idrok vat tavassul ila haqiqotil ishrok vat tavassul;

- Nihayatul idrok fi aqsamil ishrok;

- Jazul a'mal;

- Jam'ud du'ai var rido bil qodo;

- Furu'l iyman;
- hifzul iyman;
- Zuhurul adam binuril qodam;

-al-Intibahul mufiyd fil ishtibahail jadiyd : bu o'z bobidagi betakror kitobdir. Bu kitobni ta'lif qilish sababi bo'sh fikr va g'oyalarni tarqatuvchi yevropaliklar, ateistlar, sharqshunoslar yangi yevropa madaniyatini targ'ib qiluvchilarga raddiya berish hisoblanadi. Bu hajm jihatidan kichkina kitob bo'lib, boshida aqliraso bo'lgan har bir kishi taslim bo'ladigan asl qoidalar zikr qilingan. So'ng e'tiqoddagi fosidlik va yolg'onlar ochilgan, asosiy islom aqiydasi har bir sog'lom tabiatli inson qanoat qiladigan dalillar bilan keltirilgan. Bu kitobni arab tiliga Nurulbashar Muhammad Nurulhaqq tarjima qilgan.

Fiqh va fatvoga doir kitoblar:

- Imdadul fatava. Shayx butun umrini din va ummat g'amida o'tqizgan olim hisoblanadi. Shayx Muhammad Taqiy Usmoniy bu asar to'g'risida shunday degan: "fiqhga doir Imdadul fatavaa asari, olti jilddan iborat. O'zi yozgan fatvolar yeg'indisi hisoblanadi. Shayxdan Hind qozilari, g'arb-u sharq fatvo beruvchilari fatvo so'rashgan. Katta fozil ulamolar o'zlari yecha olmagan masalalarni bu zotdan so'rashgan, ular esa bu masalani barcha daqiq o'rinlari bilan, ko'ngil xotirjam bo'ladigan darajada javob yozgan. Bu kitob fiqhdagi baland o'rnini belgilab qo'yuvchi asardir. Bu asardan fatvo chiqarish uchun hozirda Pokiston, Hindiston va Bangladeshda keng foydalanishadi".

Asarning o'ziga xos jihatlari: Bu kitob o'quvchisi o'zi qidirgan barcha mavzudagi savollarga javob topadi. Aqiyda bo'ladimi, yoki ibodat, muamolat masalalari bo'ladimi barchasini topadi. Kitobning tili oson, qiyin va kam uchraydigan so'zlar ishlatilmagan. O'quvchi bu kitobdan boshqa kitoblarda topa olmaydigan yechimlarni topadi.

-al-hilyatun najiza lilhilyatil aajiza. Bu kitobda daraksiz yo'qolgan erlar, aniyn, majnun kabi kasallarning ayollarining masalari. Taloqni topshirish, balog'at ixtiyori kani masalalar ham yoritilgan. Shu kabi ko'p masalalarda molikiy mazhabi bo'yicha fatvo berilgan.

- Behishti zuyur. Bu kitob o'z ichiga aqiydaviy va fiqhiy masalalarni olgan. Ikki mingdan ortiq masalani o'z ichiga olgan ushbu asar boshdan-oyoq musulmalarga xos bo'lib, unga quyidagi mavzularga oid masalalar kiritilgan:

- Islomiy aqidalar bayoni;
- Deyarli barcha boblarga oid fiqhiy masalalar;
- Islomiy axloq va odoblar;
- Muslima ayolga o'rnak bo'lmish pokiza onalarimiz va solihalar shaxsiyati bayoni;
- Sihhatga oid tavsiyalar, muolaja va davolanish usullari;
- Uy yumushlari, hunarmandchilik va boshqalar.

Bu kitobning o'ziga xos xususiyatlaridan:

- Nafaqat fiqhga doir masalalar balki zarur aqiydaviy masalalar ham yoritilgan;
- Barcha uchun tushunarli bo'lgan tilde tozilgan.
- Qiyin yoki tushunarsiz so'zlar xoshiyada izohlangan.

- Qur'on va sunnatdan dalillar taxrij qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Rohmatulloh an- Nadaviy kitob: Ashrof Ali Tahonaviy Hakimul umma.
2. The Oxford encyclopedia of the Islamic world (<https://www.oxfordreference.com/view/10.1093/acref/9780195305135.001.0001/acref-9780195305135-e-1108?rskey=idsOj3&result=2>), John L. Esposito, New York, N.Y.: Oxford University Press, 2009. ISBN 978-0-19-986125-5 (<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Maxsus:BookSources/978-0-19-986125-5>). OCLC (<https://en.wikipedia.org/wiki/OCLC>) 744874326 (<http://worldcat.org/oclc/744874326>).
3. The Oxford encyclopedia of philosophy, science, and technology in Islam (<https://www.oxfordreference.com/view/10.1093/acref:ois/9780199812578.001.0001/acref-9780199812578-e-236?rskey=0AHi2u&result=1>), İbrahim Kalın, Oxford, 2014. ISBN 978-0-19-981258-5 (<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Maxsus:BookSources/978-0-19-981258-5>). OCLC (<https://en.wikipedia.org/wiki/OCLC>) 894103246 (<http://worldcat.org/oclc/894103246>).
4. Maqalat-e-Iqbal; Compiled by Syed Abdul Wahid Mueeni